



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BADIIY MATN KONSEPTOSFERASINING QIYOSIY-LINGVOKOGNITIV MODELII: LINGVOKULTUROLOGIK ASOSLAR VA TAHLIL TAMOIYILLARI

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li
Qo'qon davlat universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Maqolada badiiy matn konseptosferasini qiyosiy-lingvokognitiv yondashuv asosida modellashirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi lingvokulturologik birliklar, konseptual maydon, konseptlararo munosabatlar va madaniy identifikatsiya o'rtasidagi bog'lanishlarni yagona tahlil mexanizmidagi asoslashdan iborat. Material sifatida ingliz va o'zbek rivoyat matnlari korpusiga tayanildi. Natijalar badiiy matn konseptosferasi verbal markerlar, konseptual xarita va madaniy-kognitiv qatlamlar birligida shakllanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, konseptosfera, kognitiv-konseptual tahlil, lingvokulturologik birlik, konseptual maydon, korpus, milliy tafakkur, madaniy identifikatsiya.

СРАВНИТЕЛЬНО-ЛИНГВОКОГНИТИВНАЯ МОДЕЛЬ КОНЦЕПТОСФЕРЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРИНЦИПЫ АНАЛИЗА

Солижонов Мухаммаджон Закиржон угли
Кокандский государственный университет, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматривается моделирование концептосферы художественного текста на основе сравнительно-лингвокognитивного подхода. Цель исследования заключается в обосновании единого механизма анализа, раскрывающего связь лингвокультурных единиц, концептуального поля, межконцептуальных отношений и культурной идентификации. Материалом служит корпус английских и узбекских притч и риваятов. Результаты показывают, что концептосфера художественного текста формируется во взаимодействии вербальных маркеров, концептуальной карты и культурно-когнитивных слоев.

Ключевые слова: художественный текст, концептосфера, когнитивно-концептуальный анализ, лингвокультурная единица, концептуальное поле, корпус, национальное мышление, культурная идентификация.

A COMPARATIVE LINGUO-COGNITIVE MODEL OF THE CONCEPTOSPHERE OF LITERARY TEXTS: LINGUOCULTURAL FOUNDATIONS AND PRINCIPLES OF ANALYSIS

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li
Kokand State University, Associate Professor (PhD)

Abstract

The article discusses the modelling of the literary text conceptosphere within the basis of a comparative linguocognitive approach. The aim is to substantiate an integrated analytical mechanism that reveals the relationship between linguocultural units, conceptual fields, interconceptual relations and cultural identification. The material is based on a corpus of English and Uzbek parable texts. The results show that the literary text conceptosphere is shaped through the interaction of verbal markers, conceptual mapping and cultural-cognitive layers.

Keywords: literary text, conceptosphere, cognitive-conceptual analysis, linguocultural unit, conceptual field, corpus, national thinking, cultural identification.

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni o'rganish faqat leksik, grammatik yoki uslubiy xususiyatlarni tavsiflash bilan cheklanmaydi. Antropotsentrik paradigma til birliklarini inson tafakkuri, madaniy xotira, qadriyatlar tizimi va milliy dunyoqarash bilan bog'liq holda talqin qilishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, badiiy matn muallif va o'quvchi o'rtasidagi estetik aloqa vositasi bo'lish bilan birga, muayyan madaniyatga xos konseptlar, ramzlar, obrazlar va baholash mezonlarini jamlovchi konseptosfera sifatida namoyon bo'ladi. Konseptosfera matndagi konseptlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularning ierarxiyasi, markaz-periferiya munosabati va madaniy semantikasini qamrab oluvchi tizimdir [3: 11–18].

Badiiy matn konseptosferasini o'rganishda lingvokulturologik birliklar alohida ahamiyatga ega.

Obraz, metafora, frazeologizm, ramziy detal, diniy-madaniy ishora, baholovchi leksika va narrativ formula matnda faqat uslubiy bezak vazifasini bajarmaydi. Ular matnning chuqur kognitiv qatlamini ochuvchi markerlar sifatida xizmat qiladi. Shu bois badiiy matnning konseptual tahlili til birliklari, konseptual maydon, madaniy xotira va milliy identifikatsiyani yagona tizimda koʻrishni talab etadi. Til birliklari ortida muayyan bilim tuzilmalari va tajriba doiralari turgani haqidagi qarash frame semantics nazariyasida asoslangan [1: 111–137].

Tadqiqotning dolzarbligi ingliz va oʻzbek badiiy-didaktik matnlarida umuminsonga xos axloqiy qadriyatlar mavjud boʻlsa-da, ularning verbal ifodasi, konseptual markazlashuvi va madaniy talqini turlicha namoyon boʻlishi bilan belgilanadi. Masalan, hikmat, adolat, halollik, oqibat, sabr, masʼuliyat kabi tushunchalar har ikki madaniyatda muhim boʻlsa-da, ularning matndagi vazifasi, baholash mezon va qahramon harakatini asoslash usuli bir xil emas. Ingliz parable matnlarida shaxsiy qaror, individual javobgarlik va amaliy natija koʻproq oldinga chiqsa, oʻzbek rivoyatlarida jamoaviy xotira, el oldidagi burch, keksalar hikmati, ota-ona roziligi va maʼnaviy-axloqiy ibrat ustuvor boʻladi.

Mazkur maqolaning maqsadi badiiy matn konseptosferasining qiyosiy-lingvokognitiv modelini yoritish, modelning lingvokulturologik asoslari va tahlil tamoyillarini aniqlash hamda ingliz va oʻzbek rivoyat matnlari korpusi misolida uning amaliy qoʻllanish imkoniyatlarini koʻrsatishdan iborat. Ushbu maqsad badiiy matnni nafaqat alohida lingvistik birliklar darajasida, balki konseptual maydon, konseptosfera va madaniy identifikatsiya birliklari darajasida ham tahlil qilishni nazarda tutadi.

Materiallar va metodlar.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va oʻzbek tillaridagi badiiy-didaktik rivoyat va parable matnlari tanlandi. Ingliz tilidagi materiallar uchun *The Aesop for Children* toʻplamidagi parable va fable xususiyatiga ega matnlar, oʻzbek tilidagi materiallar uchun esa Sharq hikoyat va rivoyatlari anʼanasiga mansub namunalar asos qilib olindi [10: 5–112; 11: 7–384]. Material tanlashda matnlarning didaktik xulosaga egaligi, konseptual jihatdan boyligi, axloqiy baholashga asoslanishi, qahramon harakati orqali maʼlum qadriyatni ifodalashi va turli madaniy kodlarni yuzaga chiqarishi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Materiallar korpusga asoslangan yondashuv orqali tartibga solindi. Matnlar avvalo sarlavha, voqea rivoji, qahramon nutqi, muallif izohi, didaktik xulosa va baholovchi birliklar boʻyicha segmentlandi. Keyin takrorlanuvchi leksik birliklar, metaforik ifodalar, konseptual kalit soʻzlar, ramziy obrazlar va madaniy ishoralar alohida roʻyxatga olindi. Korpusga asoslanganlik bu yerda faqat avtomatik chastota hisoblash maʼnosida emas, balki matnlar ichidagi takrorlanish, kontekstual yaqinlik, semantik bogʻlanish va konseptual faollikni izchil kuzatish usuli sifatida qoʻllandi.

Tadqiqot metodlari kognitiv-semantik tahlil, lingvokulturologik tahlil, konseptual xaritalash, korpusga asoslangan kuzatuv, qiyosiy-tipologik tahlil va interpretativ umumlashtirishdan iborat boʻldi. Kognitiv-semantik tahlil verbal birlik ortidagi bilim tuzilmasini aniqlashga, lingvokulturologik tahlil mazkur birlikning madaniy maʼnosini belgilashga, konseptual xaritalash esa konseptlar oʻrtasidagi aloqalarni grafik va mantiqiy tizim sifatida tasavvur qilishga xizmat qildi. Qiyosiy-tipologik tahlil ingliz va oʻzbek matnlaridagi izomorf hamda allomorf belgilarni ajratishga imkon berdi.

Tahlil algoritmi quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oldi: 1) matnlarni korpusga kiritish va segmentlash; 2) verbal markerlarni aniqlash; 3) verbal markerlar asosida konseptual kalit birliklarni belgilash; 4) konseptual maydonning markaziy va periferik qismlarini ajratish; 5) konseptlararo sabab-oqibat, zidlanish, ierarxiya, assotsiatsiya va metaforik aloqalarni aniqlash; 6) konseptual xarita tuzish; 7) ingliz va oʻzbek materiallaridagi umumiy va milliy xususiyatlarni qiyoslash; 8) natijalarni badiiy matn konseptosferasining qiyosiy-lingvokognitiv modeli sifatida umumlashtirish.

Metodologik jihatdan konseptual xarita uch asosiy maydonni oʻz ichiga oldi. Birinchi maydon verbal ifoda maydoni boʻlib, unda matnda bevosita uchraydigan soʻzlar, iboralar, metaforalar va obrazli birliklar jamlandi. Ikkinchi maydon konseptual faollashuv maydoni boʻlib, unda ushbu birliklar orqali yuzaga chiqadigan konseptlar qayd etildi. Uchinchi maydon madaniy talqin maydoni boʻlib, unda konseptlarning milliy tafakkur, qadriyatlar ierarxiyasi va madaniy identifikatsiya bilan munosabati izohlandi. Bunday uch bosqichli yondashuv badiiy matnni yuzaki syujetdan chuqur kognitiv-madaniy qatlamga tomon tahlil qilish imkonini beradi.

Metodlar tizimida “verbal marker – konsept – konseptual munosabat – konseptosfera” zanjiri asosiy tahliliy mexanizm sifatida belgilandi. Masalan, matnda “nur”, “yoʻl”, “meva”, “tarozi”, “ota”, “ustoz”, “tanlov”, “natija” kabi birliklar uchraganda, ular avvalo verbal marker sifatida qayd etiladi; keyin ular bilim, hayot, sabr, adolat, avlodlar tajribasi, taʼlim, masʼuliyat yoki oqibat kabi konseptlar bilan bogʻlanadi; soʻng bu konseptlar oʻzaro qanday munosabatga kirishgani aniqlanadi; yakunda esa ular matnning umumiy konseptosferasida qanday madaniy vazifa bajargani izohlanadi.

Natijalar.

Tahlil natijalari badiiy matn konseptosferasining to'rt qatlamli tizim sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Birinchi qatlam – verbal markerlar qatlami. Bu qatlamda matnda bevosita ifodalangan leksik birliklar, frazeologizmlar, metaforalar, ramziy obrazlar, diniy-madaniy ishoralar, baholovchi sifatlar va takrorlanuvchi narrativ formulalar aniqlanadi. Mazkur qatlam matnning ko'rinadigan lingvistik sathini tashkil etadi, biroq uning vazifasi faqat shakliy tavsif bilan tugamaydi. Aynan verbal markerlar konseptual maydonni faollashtiruvchi signal vazifasini bajaradi.

Ikkinchi qatlam – konseptual maydon qatlami. Unda verbal markerlar orqali yuzaga chiqadigan markaziy va yordamchi konseptlar belgilanadi. Markaziy konsept matnning asosiy semantik o'qini tashkil etsa, yordamchi konseptlar ushbu o'qni izohlaydi, mustahkamlaydi yoki unga baholovchi rang beradi. Masalan, adolat konsepti markazda bo'lgan matnda haqiqat, jazo, hukm, ayb, tavba, insof kabi konseptlar periferik maydonni tashkil etadi. Hikmat konsepti markazda turgan matnda esa ustoz, tajriba, yosh, sabr, nasihat, ibrat kabi birliklar konseptual tarmoqni kengaytiradi.

Uchinchi qatlam – konseptlararo munosabatlar qatlami. Tadqiqot davomida konseptlar o'rtasida sabab-oqibat, zidlanish, ierarxiya, assotsiatsiya, metaforik ko'chish va baholash munosabatlari faol ekanligi aniqlandi. Masalan, yaxshilik – mukofot, yomonlik – jazo, sabr – natija, nodonlik – zarar, bilim – najot kabi sabab-oqibatli bog'lanishlar rivoyat matnlarining didaktik strukturasi shakllantiradi. Zidlanish munosabatlari esa halollik – hiyla, adolat – zulm, donolik – nodonlik, sabr – shoshqaloqlik kabi oppozitsiyalar orqali yuzaga chiqadi.

To'rtinchi qatlam – konseptosfera qatlami bo'lib, u alohida konseptlar va konseptual maydonlarni milliy tafakkur, madaniy xotira va identifikatsiya bilan bog'laydi. Bu qatlamda matn faqat axloqiy xulosa beruvchi didaktik birlik emas, balki madaniyatning qadriyatlar tizimini uzatuvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek rivoyatlarida el, xalq, ota-ona, ustoz, duo, savob, insof, halol kabi birliklar madaniy xotirani faollashtiradi. Ingliz parable matnlarida esa choice, responsibility, fairness, self-reliance, lesson kabi tushunchalar shaxsning tanlovi va amaliy xulosasi bilan bog'lanadi.

Korpus asosidagi kuzatishlar umumiy va xususiy belgilarni ajratishga imkon berdi. Umumiy belgilar sifatida axloqiy xulosa, ibrat, tajriba, yaxshilik-yomonlik zidlanishi, inson xatti-harakatining oqibati, bilim va nodonlik oppozitsiyasi kabi konseptual strukturalar qayd etildi. Bular har ikki madaniyatda ham badiiy-didaktik matnning universalligini ko'rsatadi. Xususiy belgilar esa mazkur konseptlarning madaniy talqinida namoyon bo'ladi: bir madaniyatda konsept shaxsiy tajriba bilan, ikkinchisida esa jamoaviy qadriyatlar tizimi bilan asoslanishi mumkin.

Natijalar konseptual xarita usulining samaradorligini ham ko'rsatdi. Konseptual xarita matnda qaysi konseptlar markazda turgani, ular qanday verbal birliklar orqali ifodalangani va qaysi konseptlar bilan munosabatga kirishganini ko'rsatadi. Ingliz parable matnlarida wisdom, choice, consequence, action, responsibility kabi konseptlar ko'proq individual qaror va amaliy natija bilan bog'liq holda namoyon bo'lsa, o'zbek rivoyatlarida hikmat, sabr, halollik, ibrat, oqibat, el, ota-ona, ustoz kabi konseptlar jamoaviy xotira va axloqiy me'yorlar tizimi bilan bog'lanadi.

Tahlil jarayonida badiiy matn konseptosferasining markaz va periferiyadan iborat bo'lishi alohida tasdiqlandi. Markaziy konseptlar matnning asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi, periferik konseptlar esa ushbu g'oyani madaniy, emotsional va baholovchi jihatdan to'ldiradi. Markaz va periferiyaning o'zaro munosabati matnning semantik zichligini oshiradi. Masalan, "sabr" markaziy konsept sifatida kelganda uning atrofida "mehnat", "sinov", "umid", "natija", "mukofot" kabi yordamchi konseptlar shakllanadi; "responsibility" markaziy konsept bo'lgan ingliz matnlarida esa "choice", "action", "consequence", "lesson" kabi birliklar faol ishtirok etadi.

Korpus materiallari shuni ko'rsatadiki, verbal markerlarning chastotasi har doim ham konseptual markazni to'liq belgilamaydi. Ba'zan kam uchraydigan, lekin matn yakunidagi didaktik xulosani aniqlab beruvchi birlik konseptual jihatdan markaziy vazifani bajaradi. Shu sababli modelda miqdoriy kuzatuv sifat tahlili bilan birga qo'llanadi. Chastota markerning faolligini ko'rsatadi, kontekst esa uning konseptual vazifasini ochib beradi. Bu xulosa badiiy matn tahlilida korpus yondashuvi va interpretativ yondashuv bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi.

Muhokama.

Olingan natijalar badiiy matn konseptosferasini semantik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki ko'p darajali kognitiv-madaniy tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu xulosa konsept, konseptual maydon va diskurs o'rtasidagi munosabatni shaxs, madaniyat va kommunikativ vaziyat bilan bog'lab talqin qilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir [6: 25–39]. Badiiy matnda konseptlar alohida nomlar sifatida emas, balki obraz, voqea, qahramon harakati, dialog va xulosa bilan bog'langan holda faoliyat

ko'rsatadi.

Bunday yondashuv badiiy matn tahlilida ikki muhim masalani hal qiladi. Birinchidan, lingvokulturologik birliklarni faqat milliy kolorit belgisi sifatida emas, balki konseptual tizimni faollashtiruvchi mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, konseptual maydonni faqat semantik yaqinlik asosida emas, balki narrativ vazifa, baholash mezonlari va madaniy xotira bilan bog'liq holda o'rganishga sharoit yaratadi. Shu sababli badiiy matnni kognitiv-konseptual tahlil qilishda lingvistik, kognitiv va madaniy mezonlar birgalikda ishlashi zarur.

Ingliz va o'zbek rivoyatlari qiyosida aniqlangan farqlar ikki madaniyatdagi axloqiy-didaktik matnlarning kognitiv yo'nalishini ko'rsatadi. Ingliz matnlarida qahramonning shaxsiy tanlovi, mustaqil harakati va natijaga javobgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat individual tajriba va amaliy xulosaga asoslangan badiiy-didaktik modelni yuzaga chiqaradi. O'zbek rivoyatlarida esa qahramonning xatti-harakati ko'pincha el oldidagi burch, ota-ona va ustoz hurmati, jamoa fikri, ma'naviy javobgarlik va axloqiy muvozanat bilan baholanadi. Bu esa ma'naviy-jamoaviy identifikatsiyaga asoslangan modelni shakllantiradi.

Shu bilan birga, ikki til materialida umumiy konseptual asoslar ham mavjud. Wisdom/hikmat, justice/adolat, honesty/halollik, consequence/oqibat kabi konseptlar har ikki madaniyatda markaziy ahamiyatga ega. Biroq ularning verbal ifodasi va madaniy talqini farqlanadi. Wisdom ingliz matnlarida ko'proq tajribadan kelib chiqqan amaliy xulosa sifatida ko'rinsa, hikmat o'zbek rivoyatlarida avlodlar tajribasi, nasihat va ma'naviy yetuklik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu farq bir konseptning turli madaniy konseptosferalarda turlicha semantik vazifa bajarishini ko'rsatadi.

Modelning afzalligi shundaki, u istalgan badiiy matnni tahlil qilishda qo'llanishi mumkin bo'lgan universal algoritmi taklif etadi. Avval verbal birliklar aniqlanadi, keyin ular konseptual maydon bilan bog'lanadi, so'ng konseptlararo munosabatlar belgilanadi va yakunda milliy tafakkur hamda madaniy identifikatsiya darajasida umumlashtiriladi. Bu algoritmi tadqiqotchini tasodifiy kuzatuvdan saqlaydi va tahlil jarayonini ilmiy izchillikka olib keladi. Ayniqsa, korpusga asoslangan tahlilda bunday algoritmi materialning tartibli tasniflanishi va natijalarning tekshirilishi uchun muhimdir.

Korpus yondashuvi muhokama qilinayotgan modelga ikki tomonlama foyda beradi. Bir tomondan, korpus takrorlanuvchi birliklar, konseptual markerlar va baholovchi ifodalarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, korpus bir xil konseptning turli matnlarda qanday kontekstlarda faollashtirishini kuzatishga sharoit yaratadi. Masalan, "adolat" konsepti bir matnda hukm va jazo bilan, boshqa matnda insof va kechirim bilan, yana bir matnda esa haqiqatni tiklash bilan bog'lanishi mumkin. Demak, konseptning mazmuni bir martalik lug'aviy izoh bilan emas, balki kontekstlar tizimi orqali ochiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari badiiy matn konseptosferasining qiyosiy-lingvokognitiv modeli lingvokulturologik birliklar, konseptual maydon, konseptual xarita, verbal marker, milliy tafakkur va madaniy identifikatsiya tushunchalarini yagona metodologik tizimga birlashtirishini ko'rsatdi. Ushbu model badiiy matnni faqat tashqi mazmun yoki syujet darajasida emas, balki chuqur kognitiv va madaniy qatlamlar birligida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Maqolada taklif etilgan tahlil algoritmi badiiy matnni bosqichma-bosqich o'rganishga imkon beradi: matn korpusga kiritiladi, verbal markerlar ajratiladi, konseptual maydon aniqlanadi, konseptlararo munosabatlar tavsiflanadi, konseptual xarita tuziladi va yakunda milliy tafakkur hamda madaniy identifikatsiya bilan bog'liq qiyosiy xulosalar chiqariladi. Bunday yondashuv tahlilni tizimli, tekshiriladigan va boshqa matnlarga tatbiq etiladigan metodologik jarayonga aylantiradi.

Ingliz va o'zbek rivoyat matnlari misolida olingan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatda axloqiy xulosa, ibrat, tajriba, yaxshilik va yomonlik zidlanishi hamda inson xatti-harakatining oqibati kabi umumiy konseptual strukturalar mavjud. Shu bilan birga, ingliz matnlarida individual tanlov, shaxsiy mas'uliyat va amaliy natija, o'zbek rivoyatlarida esa jamoaviy xotira, ma'naviy burch, sabr, ustozga va ota-onaga hurmat kabi milliy konseptual yo'nalishlar ustuvorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn konseptosferasining qiyosiy-lingvokognitiv modeli lingvokulturologik birliklar, konseptual maydon va milliy tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Modelning asosiy tamoyillari sifatida antropotsentriklik, konseptual izchillik, madaniy markazlashuv, qiyosiylik, korpusga asoslanganlik va bosqichlilik belgilanadi. Ushbu tamoyillar istalgan badiiy matnni kognitiv-konseptual tahlil qilishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida mazkur modelni nafaqat rivoyat va parable matnlari, balki hikoya, qissa, roman,

dramatik matn va tarjima matnlari asosida ham sinash mumkin. Bu esa badiiy matn konseptosferasini tadqiq etishda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, korpus lingvistikasi va qiyosiy adabiyotshunoslik oʻrtasidagi integratsiyani yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Fillmore C. J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982. – P. 111–137.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
3. Лотман Ю. М. Семиосфера. – Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 2000. – 704 с.
4. Воробьев В. В. Лингвокультурология. – Москва: Изд-во РУДН, 2008. – 340 с.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
6. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
7. Sharifian F. Cultural Linguistics. – Amsterdam: John Benjamins, 2017. – 171 p.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
9. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.
10. The Aesop for Children. – Chicago: Rand McNally & Co., 1919. – 112 p.
11. Ochilov E. Sharq hikoyat va rivoyatlari. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2011. – 384 b.